

MA'NO KO'CHISH TURLARI

Yunusova Shaxnoza Qobiljonovna

Andijon viloyati Marhamat tumani 2-sон kasb-hunar maktabi

"Ona tili va adabiyot" fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ma'no ko'chish turlari va ularni tahlil qilish.

Kalit sozlar: Ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya, so'z gap, vaziyat.

So'zlarda ikki xil ma'no turi mavjud. Birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. O'z ma'no so'zlarni yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir ma'noni anglatsa bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan matn ichidagi ma'nosi ikki xil bo'lisa, bu so'z ko'chma ma'noli so'z deyiladi. Ma'no ko'chish bir necha turlarga bo'linadi.

Demak, ma'no ko'chishining turlari quyidagilar (tartib bilan):

- 1) metafora;
- 2) metonimiya;
- 3) sinekdoxa;
- 4) vazifadoshlik.

Ma'no ko'chish turlari:

**1. Tashqi
o'xshashlik
munosabati -
metafora**

**2. Aloqadorlik
munosabati -
metonimiya**

**3. Butun va
qism
munosabati -
sinekdoxa**

**4. Vazifadagi
o'xshashlik
munosabati -
vazifadoshlik**

1. Metafora-yunoncha so'z bo'lib ko'chirish demakdir. Biror predmet belgi harakatning boshqasiga tashqi o'xshashlik asosida ko'chishiga aytildi.

Metafora ko'proq quyidagi munosabatlarga asosan ishlatalinadi.

1.Odam tana azolariga (qo'l, oyoq, lab, yuz, tish, yelka)

- 2.Kiyimlar va ularning biror qismiga (etag, yoqa)
- 3.Hayvon, parranda va hashoratlarning biron azosiga (qanot, dum, tumshiq, shox)
- 4.O'simlik va uning qismi (ildiz, tomir)
- 5.Qurollar (nayza, pichoq)

Masalan: odamning qulog'i, qozonning qulog'i.

2.Metonimiya-yunoncha “yangi nomlash”, “qayta nomlash” demakdir. Makon va zamondagi o'zaro bog'liqlik asosida bir narsaning nomini tushirib qoldirilib aytilishiga metonimiya deyiladi. Ya'ni, so'z tejash, so'zni ekanom qilish, so'z iqtisodchisi demakdir.

Metonimiya ko'proq quyidagi munosabatlarga asosan ishlatalinadi.

1.Joy tashkilot so'zidagi doimiy aloqaga ko'ra.

2.Muallif bilan asari orasidagi aloqa.

3.Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqada kelishi mumkin.

4.Ta'sir sababi munosabati.

Masalan: Navoiyni oldim qolimga, Navoiyning kitobini oldim qo'llimga.

3 Sinekdoxa-yunoncha birga anglash demakdir qism bilan butun munosabat asosida ma'no ko'chishidir.

Masalan: ukamni o'pdim.

4 Vazifadoshlik- narsa va hodisa o'rtasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi.

Masalan: Qushning qanoti -samoliyotning qanoti.

5. Kinoya- so'zni teskari ma'noda ishlatalishiga aytiladi.

Masalan: Xo'sh janobioliylari gapiringchi.

Ma'no ko'chishi turi qanday topiladi?

Buning uchun, dastlab, ma'nosи ko'chgan so'z topiladi. Ma'nosи ko'chgan so'z nima? Eslab qoling: Agar siz bir so'zning yakka holda ishlatalgandagi ma'nosи bilan boshqa so'zlarga bog'lanib kelgandagi ma'nosini qiyoslasangiz-u, ular farqli bo'lsa, demak, bu so'zning ma'nosи ko'chgan bo'ladi.(Shu joyini yana bir o'qing) Misol keltiramiz: **Qora** so'zi yakka holda rangni anglatadi. U **qora qalam** deyilganda ham rangni bildiryapti. Demak, ma'no ko'chmagan. Endi **qora niyat** birikmasiga e'tibor bering. Bu yerda qora so'zi rangni emas, “yomon” ma'nosini anglatyapti. Yakka holdagi va birikmadagi ma'nolar (“rang” va “yomon”) farq qilyapti, demak, ma'no ko'chyapti. Endi ma'no ko'chishi turini topamiz. Buning uchun, yuqorida aytiganidek, bir so'z va u bildirayotgan ko'chma ma'no o'rtasidagi MUNOSABAT aniqlanadi. Tahlil uchun bitta gap olamiz: *Nematovlar oilasi anavi eshikda yashashadi*. Ma'nosи ko'chgan so'zni topamiz: eshik. Qanday ma'noda kelyapti? “Uy” ma'nosida. Eshik va Uy o'rtasida qanday MUNOSABAT bor: o'xshashlikmi, aloqadorlikmi yoki butun-qism munosabatimi? Albatta, butun-qism

munosabati bor, chunki eshik uyning bir qismi sanaladi. Demak, ma’no ko‘chishi turi – sinekdoxa.

XULOSA

Xulosa qilb shuni aytish mumkunki, har bir insonning so’z boyligi mukammal bo’lishi shart. O’z ma’no va ko’chma ma’no birlashib ko’p manoli so’zlarni hosil qiladi. O’zbek tili ko’p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Tilimizning boyligi millatimiz faxridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Nargiza Erkaboyeva “Ona-tili va adabiyot ma’ruzalar to’plami”
- 2.Valijon Qodirov “Ona tili ma’ruzalar to’plami”